



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 446 sahifa,
16-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari	10
<i>Fazliddin Abdunabiyevich Abdurazaqov</i>	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari	15
<i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i>	
Orfografik kompetensiyaning mohiyati va boshlang'ich sinflarda shakllanish bosqichlari	21
<i>Abduvaliyeva Nodira Alisherovna, Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda uch o'lchamli vizualizatsiyalarning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati	25
<i>Nabijonova Feruza Valijon qizi</i>	
Loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni	28
<i>O'rinova Nilufar Muxammadovna</i>	
Sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi	32
<i>Qilichova Billura Yorqinxuja qizi, Homidov H. K.</i>	
Kasbiy-kommunikativ madaniyat fenomenining pedagogik talqini va rivojlanish tendensiyalari	37
<i>Tashpulatova Nodira Olimjon qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv	41
<i>Umbarova Nasiba Xolboy qizi</i>	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati	44
<i>Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboev Navruz Ihombek o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi (PIRLS dasturi misolida)	47
<i>Abduraxmanova Charos Burxanovna</i>	
Lesson Planning in English Language Teaching at Technical Universities	51
<i>Aitbaeva Nursuliu Tairbekovna</i>	
Lingvistik intellekt asosida individual o'qitish yondashuvining samaradorligi	55
<i>Allanazarova Sadoqat Azimovna</i>	
Xorij tadqiqotlarida zamonaviy oila transformatsiyasida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari	59
<i>Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna</i>	
Теоретико-методологические подходы к изучению эмоциональных концептов в литературе: (на материале английских и немецких фразеологизмов)	63
<i>Сайёра Улашевна Тагаева, Азиза Анкаевна Уразкулова</i>	
The Importance of Forming a Schedule for High School Students	67
<i>D. T. Atabayeva, X. I. Abduraymova</i>	
Milliy cholg'u ansambllari orqali o'quvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish	70
<i>Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yondashuvning texnologik xususiyatlari ...	75
<i>Jumanov Sherzod Saloyevich</i>	
Adabiyot darsliklari uchun yangi o'zbek adabiyoti namunalarini saralashning ilmiy-metodik asoslari	78
<i>Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi</i>	
Maktab geometriyasida ko'pyoqlilar mavzusini o'rganishning innovatsion usullari	83
<i>Pirlepesov Umrbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Generativ AI vositalarining mustaqil ta'lim jarayonidagi didaktik funksiyalari	86
<i>Qahramonova Xumora Qahramonovna</i>	
O'quvchi-sportchilar uchun individual mashg'ulot yuklamalarini avtomatik rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyatini yaratish ahamiyati	91
<i>Qosimov Faxriddin Jo'raqulovich</i>	



Когнитивный диссонанс как социально-психологический феномен в контексте высшего образования: теоретический анализ	95
Мансурова Гульмира Рафазловна	
Регуляторный произвол или необходимый порядок? Влияние новых регуляторных механизмов на свободу расследовательской журналистики	101
Рауфова Озода	
Qizlar tarbiyasida mahalla–oila–maktab hamkorligi mexanizmlari	105
Choriyeva Dildora Ismat qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning samaradorligi: kompetensiyaviy yondashuv asosida	109
Tangriyev Abdulkarim Tovashevich	
O'qish savodxonligi darslarida matn bilan ishlash orqali o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi.....	114
Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi	
Raqamli transformatsiya sharoitida STEAM ta'limi orqali talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish	120
Kozimova Mehriniso Akbarali qizi	
Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi.....	125
O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish texnologiyalari va ularning amaliy qo'llanilishi	129
Sharipov Nodir Botir o'g'li	
Management of Medical Emergencies in Outpatient Dental Clinics.....	133
Adurazzoqov Kamoliddin, Umarov Maruf, Buzrukhoda Javohir	
Psixologik farovonlikning asosiy komponentlari, ta'sir qiluvchi omillar va zamonaviy baholash usullari	138
Aliyev Samariddin Murotali o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	142
Boymurodova Sadoqat Istam qizi	
O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.....	146
Gadoymurodova Kamola Sunnatulloevna	
Oilada bola tarbiyasining ahamiyati va uning shaxs kamolotiga ta'siri	151
Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Oilimova Mushtariy Xaydarali qizi	
Art-pedagogika vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik ahamiyati	154
Gulboyev Akbar Tuxtyayevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy tadbirlar orqali vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish	158
Homidov Husniddin Kupaysinovich, Yusupova Gulzor Yunusjon qizi, Norbekova Sevinch Musurmon qizi	
Bone-Grafting Materials in Oral Surgery: Classification, Biological Properties, and Clinical Application	161
Jumaqulova Mashhura Alishevovna, Buzrukhoda Javohir Davronovich	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik	166
Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi	
Using STEM Technologies to Foster Rational Thinking in the Dentistry	169
Khonimqulov Javlon, Burkhonova Zarafuz	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini montessori metodikasi vositasida til o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish usullari modeli.....	173
Mahbuba Yusupova Rustam qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni integrativ yondashuv asosida shakllantirish metodikasining samaradorligi.....	177
Nasimova N. Q.	
Analysis of Scanning Techniques Used in Orthodontic Dentistry	182
Nasrullayev Javlonbek Ta'atonovich, Rahimberdiyev Rustam Abdunosirovich	
Zamonaviylik - ta'lim konsepsiyasida asosiy mezon sifatida	187
Ochilova Gulnoza Odilovna	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	O'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish metodikasi 191 Qahhorova Sojida Bahodir qizi, Zokirov Javoxir G'aybullo o'g'li
Diqqat va xotira jarayonlarida raqamli texnologiyalarning roli 196 Salomova Nargiza Sattorovna	
Talabalarda kasbiy refleksiya rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarning empirik tahlili..... 200 Shukurova Nargiza Ikramovna	
Gimnastikachi qizlarda egiluvchanlik jismoniy sifatini rivojlantirish jarayonida shikastlanishlarning oldini olish 205 Sultanova Musharafxon Xudoyqul qizi	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ekologik bilimlarni raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish... 210 Sayfetdinova Dildora Ikramitdinovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari 216 Uralova Nurxon Maxadovna	
Naqshbandiya qadriyatlarini bo'lg'usi o'qituvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni..... 220 Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari 223 Xo'jamberdiyeva Maftuna Norqobilovna, Sanaqulova Sevinch Baxtiyor qizi	
Developing Logical Thinking via the Use of STEM Technology 226 Yarmuhammedov Nabijon Navruzovich, Burkhonova Zarafuz	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati 229 Yo'ldoshboyeva Zulfiya Ravshan qizi, Jumayev Abdilxakim Turdiyevich	
Значение предмета физического воспитания и спортивной метрологии в физическом воспитании молодежи 233 Маматкулов Равшанжон Солижонович	
Аксиологические аспекты диалога культур в романе Сухбата Афлатуни "Рай Земной" 237 Чернова Татьяна Алексеевна, Худойназаров Сардорбек	
Maktab boshqaruvida ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari..... 240 Akbutayeva Gulasal Uzoq qizi	
Features of Verbal and Non-Verbal Communication in Teaching Foreign Languages in Higher Education Institutions 248 Gulnoza Aslamovna Azimkulova	
Chaenomeles Japonica (Thunb.) Lindl. Ex Spach mevalaridan ajratib olingan polifenol va pektin komplekslarining ichak mikrobiotasi, oksidlovchi stress va immun javobga ta'sirini molekulyar-biologik usullar asosida tadqiq etish 251 Ergasheva Nigora G'ayratovna	
Contemporary Linguodidactic Trends in Teaching English in Higher Education 259 Khudoyarova Ziyoda Maratovna	
Yuqori sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning muammo va imkoniyatlari..... 264 Layloxon Xabibullayeva Tursunali qizi	
Raqamli sport pedagogikasi va bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish omillari..... 269 Matvapayev Azizbek Gaibnazar o'g'li	
Sun'iy intellektga qaramlik: raqamli addiksiya evolyutsiyasining yangi bosqichi 273 Mo'minxo'jayeva Zuhra Alimjon qizi	
Linguo-Cognitive Modeling of The Relationship Between Life and Death In Literary Texts: a Comparative Analysis (Based on 20 th -Century English and Karakalpak Works)..... 279 Najimova Perizad Arslanbay qizi	
Talabalar intellektual qobiliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari 283 Shodiyeva Charos Ravshan qizi	
Ta'limiy o'yinlar vositasida ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalashga qaratilgan mashg'ulotlarining asosiy bosqichlari 286 Xaytova Farida Kuchkarovna	



Raqamli va an'anaviy o'qish: qiyosiy tahlil.....	292
<i>Mashrapova Sevara Xabibovna</i>	
Mustahkam oila qadriyatlari va ularning zamonaviy jamiyat rivojiga ta'siri.....	296
<i>Soyibova Bonu O'tkir qizi</i>	
Sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik mohiyati	301
<i>Xoliqov Farxod Karomatillo o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar: sun'iy intellekt vositalaridan oqilona foydalanish metodikasi...	305
<i>Aminov Shavkatjon Sobir o'g'li, Abdusattarova Muhlisaxon Foziljon qizi, Berdiyaroova Jasmena Sherzodjon qizi</i>	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi dzyudochilarda koordinatsion qobiliyatlarni shakllantirishning samarali vositalari	311
<i>Jumanova Iroda Shokirjon qizi</i>	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompEtensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik.....	315
<i>Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi</i>	
Xorijiy tillarda yozma ish turlarini o'rganishning o'ziga xos jihatlari	319
<i>Omonova Sarvinov</i>	
Can Duolingo Reduce Speaking Anxiety: A Literature-Based Analysis	322
<i>Qodirqulova Ra'no</i>	
Kommunikativ yondashuv asosida o'quvchilarning chet tilida muloqot qilish ko'nikmalarini takomillashtirish	326
<i>Sa'dullayeva Shahzoda Nuriddin qizi</i>	
Zamonaviy psixologning kasbiy kompetensiyasi: krizisli vaziyatlarda ishlash texnologiyalari.....	330
<i>Shirinov Otobek Tualovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari	333
<i>Uralova Nurxon Maxadovna</i>	
Иммерсивные технологии в обучении русскому языку как иностранному: современные подходы и перспективы	337
<i>Абдусаламова Адиба Каримджановна</i>	
Инновационная методика интенсивного обучения студентов филологического направления русскому языку в сопоставлении с узбекским языком	340
<i>Касимов А. Б.</i>	
Basketbolchilarning jamoaviy texnik harakatlarini takomillashtirish.....	344
<i>Mirzayev Xusniddin Abdusattor o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda zamonaviy o'qitish usullari.....	348
<i>Alimjanova Matlyuba Yunusovna</i>	
Socio-Psychological Mechanisms of Child Protection From Violence: International Experience and the Practice of Uzbekistan.....	351
<i>Ganiev Maksudjon Najim ugli</i>	
Malaka oshirish jarayonida maktab o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	357
<i>Gafforova Sarvinov Asrorovna</i>	
Чап qo'li yetakchi o'quvchilarni o'qitishda neyropedagogik yondashuvning pedagogik mohiyati va asosiy tushunchalari	361
<i>Rashidov Abduaziz Abduvali o'g'li</i>	
XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jadidchilik harakatining Qashqadaryoga kirib kelishi va uning ta'lim tizimiga oid tarixiy-pedagogik ildizlari	369
<i>Sulaymonova Nilufar O'tkir qizi</i>	
Снижение коммуникативной тревожности студентов-филологов средствами театральных упражнений в обучении немецкому языку	372
<i>Галиуллов Марат Анварович</i>	
Педагогические условия совершенствования дидактических моделей обучения студентов в цифровой образовательной среде	376
<i>Рахматова Нигина Исломовна</i>	

O'smirlarda internet tobeligi namoyon bo'lishining shaxs xususiyatlariga ta'siri.....	380
Djuxonova Noxida Xayotjonovna	
Tarix darslarida "Educaplay" interaktiv o'yinlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari.....	384
Eshankulova Ma'mura Davlatovna	
Yangi O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy faolligini ta'minlash: falsafiy tahlil va milliy dastur istiqbollari	388
Jurayeva Mushtariy Muxaydinovna	
"Neyropsycore / Bo'g'irsoq" kompyuterlashtirilgan dasturi asosida 6-9 yoshli bolalarda eshituv-so'z-mantiqiy xotirani rivojlantirish samaradorligi.....	392
Mirzajonova Eleonora Topvoldiyevna	
Texnika oliy ta'limida o'qitishning metodologiyasi: zamonaviy yondashuvlar va samarali pedagogik texnologiyalar	395
Numonjonov Shoxzodbek Dilshodjon o'g'li	
Raqamli ta'limda fizika o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli	401
Sh. A. Saidova, J. J. Kamolov	
Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining yozuv kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni.....	410
Jo'rayeva Zuhra Kamoliddin qizi	
Integrativ o'qitish samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari mazmuni.....	414
Kamola U. Mirzayeva	
Oliy ta'lim tizimida dasturiy-konseptual modellashtirishning epistemologik va metodologik asoslari	419
Muydinjonov Ziyodjon Rafiqjon o'g'li	
Imom G'azzoliyning farzand tarbiyasiga oid qarashlarini zamonaviy pedagogikaga joriy etish shart-sharoitlari.....	423
Nabiyeva Aziza Komil qizi	
Parsial o'quv dasturlarining pedagogik mazmuni, tuzilishi va boshlang'ich ta'lim metodikasidagi nazariy asoslari	429
Saydillayeva Mehrnaz Bahodir qizi	
FabLab va MakerSpace texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida texnik ijodkorlikni shakllantirish metodikasi	434
Xudaykulova Saida Zakirovna	
The Role of Qualified Teachers in Students' Career Choices.....	441
Karimov Dostonjon Karimovich	

TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINING YOZUV KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

Jo'rayeva Zuhra Kamoliddin qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining yozuv kompetensiyasini shakllantirish jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida yozma nutqni rivojlantirish nafaqat grammatik qoidalarni o'zlashtirish, balki fikrni mustaqil shakllantirish, dalillar asosida yoritish, tahlil qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatlarini ham talab etadi. Tadqiqotda tanqidiy fikrlashning yozuv jarayonining rejalashtirish, matn yaratish, tahrirlash va baholash bosqichlariga ta'siri ochib beriladi. Shuningdek, tanqidiy fikrlash asosida tashkil etilgan yozuv mashg'ulotlari talabalarning ijodiy yondashuvi, akademik yozuv malakasi hamda kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishdagi roli ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, yozuv kompetensiyasi, akademik yozuv, kommunikativ kompetensiya, ijodiy fikrlash, matn tahlili, yozma nutq.

Abstract: This article analyzes the importance of critical thinking skills in the process of developing writing competence. In modern education, the development of written communication requires not only the mastery of grammatical rules but also the ability to independently formulate ideas, present arguments based on evidence, analyze information, and draw logical conclusions. The study reveals the influence of critical thinking on the stages of the writing process, including planning, text production, editing, and evaluation. Furthermore, it examines the role of writing activities organized on the basis of critical thinking in developing students' creative approach, academic writing skills, and communicative competencies.

Key words: critical thinking, writing competence, academic writing, communicative competence, creative thinking, text analysis, written communication.

Аннотация: В данной статье анализируется значение навыков критического мышления в процессе формирования письменной компетенции. В современных условиях образования развитие письменной речи требует не только усвоения грамматических правил, но и способности самостоятельно формулировать мысли, аргументировать их на основе доказательств, анализировать информацию и делать логические выводы. В исследовании раскрывается влияние критического мышления на этапы процесса письма: планирование, создание текста, редактирование и оценивание. Также рассматривается роль письменных заданий, организованных на основе критического мышления, в развитии творческого подхода студентов, навыков академического письма и коммуникативных компетенций.

Ключевые слова: критическое мышление, письменная компетенция, академическое письмо, коммуникативная компетенция, творческое мышление, анализ текста, письменная речь.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida shaxsning bilim olish jarayonidagi faolligi, mustaqil qaror qabul qilishi va o'z fikrlarini asoslangan holda ifodalay olishi muhim kompetensiyalardan biri sifatida qaralmoqda. Axborot hajmi keskin ortib borayotgan bugungi davrda faqatgina tayyor bilimlarni egallash yetarli bo'lmay, balki olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, ularning ishonchligini baholash, turli nuqtayi nazarlarni taqqoslash va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatlari ham talab etiladi. Shu sababli tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Yozuv kompetensiyasi insonning o'z fikrlarini yozma shaklda aniq, tushunarli va mantiqiy ifodalash qobiliyatini namoyon etuvchi murakkab kommunikativ jarayondir. Ushbu kompetensiya nafaqat grammatik va leksik bilimlarni, balki fikrlash jarayonlarini, ijodiy yondashuvni, tahliliy qobiliyatlarni ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa, akademik va kasbiy faoliyatda yozma nutq shaxsning bilim darajasi, dunyoqarashi va muammolarga yondashuvini ko'rsatuvchi muhim vosita hisoblanadi. Shuning uchun yozuvni rivojlantirish jarayonida talabning mustaqil fikrlashi va dalillarga asoslangan fikr yurita olishi alohida ahamiyat kasb etadi.



Tanqidiy fikrlash - bu mavjud ma'lumotlarni chuqur o'rganish, ularni tahlil qilish, dalillarni aniqlash, sabab va oqibatlarini tushunish hamda asoslangan xulosalarga kelish jarayonidir. Mazkur ko'nikma yozuv jarayonining barcha bosqichlarida: mavzuni tanlash, g'oyalarni shakllantirish, ma'lumotlarni saralash, matn tuzilishini yaratish va yakuniy tahrirlash jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Tanqidiy fikrlashga ega bo'lgan yozuvchi fikrlarini shunchaki bayon qilish bilan cheklanmaydi, balki ularni asoslaydi, tahlil qiladi va o'quvchiga aniq yetkazishga harakat qiladi.

Bugungi kunda oliy ta'lim jarayonida talabalarni ilmiy va akademik yozuvga o'rgatish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Talabalardan ilmiy maqolalar, esse, kurs ishlari va boshqa yozma ishlarni tayyorlashda mustaqil tahlil qilish, turli manbalarni o'rganish va o'z nuqtayi nazarini ilmiy asoslash talab qilinadi. Bu jarayon esa bevosita tanqidiy fikrlash kompetensiyasining rivojlanganlik darajasiga bog'liqdir. Chunki chuqur fikrlash va tahlil qilish qobiliyati shakllanmagan holda mukammal yozma ish yaratish qiyin.

Yozuv kompetensiyasini shakllantirishda tanqidiy fikrlashdan foydalanish o'quvchilarning nafaqat yozma nutqini, balki umumiy intellektual salohiyatini ham rivojlantiradi. Tanqidiy yondashuv asosida yozilgan matnlar mazmunan boy, mantiqan izchil va ilmiy jihatdan asoslangan bo'ladi. Shu bois ta'lim jarayonida yozuv faoliyatini tanqidiy fikrlash strategiyalari bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarning kommunikativ, analitik va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Mazkur maqolada tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining yozuv kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni, uning yozma nutq rivojiga ta'siri hamda ta'lim jarayonida ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tanqidiy fikrlash va yozuv kompetensiyasi masalasi zamonaviy pedagogika hamda lingvodidaktika fanlarida keng tadqiq etilayotgan yo'nalishlardan biridir. Tanqidiy fikrlash nazariyasining shakllanishida amerikalik olimlar R. Ennis, J. Dewey, P. Facione va D. Halperning ilmiy ishlari muhim o'rin tutadi. J. Dewey tanqidiy fikrlashni reflektiv tafakkur jarayoni sifatida izohlab, insonning muammolarni tahlil qilish va asoslangan qaror qabul qilish qobiliyati bilan bog'laydi. R. Ennis esa tanqidiy fikrlashni mantiqiy va asoslangan fikr yuritishga yo'naltirilgan intellektual faoliyat sifatida tavsiflaydi.

Yozuv kompetensiyasini rivojlantirish masalalari J. Harmer, R. White, T. Hedge va K. Hyland kabi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ularning fikricha, samarali yozuv faqat grammatik bilimlarga emas, balki tahliliy fikrlash, argumentlash va matnni mantiqiy tashkil etish ko'nikmalariga ham bog'liq. Ayniqsa, K. Hyland akademik yozuv jarayonida tanqidiy fikrlashning ahamiyatini alohida ta'kidlab, talabalarni dalillarga asoslangan fikr yuritishga o'rgatish zarurligini ko'rsatadi.

Tanqidiy fikrlash va yozuv kompetensiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan tadqiqotchilar orasida P. Facione, D. Halpern va R. Paulning ishlari alohida ahamiyatga ega. Ular tanqidiy fikrlash ko'nikmalari rivojlangan o'quvchilar yozma nutqda fikrlarini aniqroq ifodalashi, dalillarni samaraliroq qo'llashi va mantiqiy xulosalar chiqarishga moyil bo'lishini ilmiy jihatdan asoslab berganlar.

O'zbek pedagogika fanida ham tanqidiy fikrlash va kompetensiyaviy yondashuv masalalari N. Sayidahmedov, U. Tolipov, R. Mavlonova, O'. Asqarova kabi olimlarning ilmiy ishlarida yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida ta'lim jarayonida mustaqil fikrlashni rivojlantirish, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalalari tahlil qilingan.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining yozuv kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni masalasi alohida kompleks tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur maqola aynan ushbu muammoning nazariy va amaliy jihatlarini yoritishga qaratilgan.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining yozuv kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rnini aniqlash maqsadida nazariy va empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik, psixologik va lingvodidaktik adabiyotlar tahlil qilindi, tanqidiy fikrlash hamda yozuv kompetensiyasiga oid ilmiy manbalar qiyosiy o'rganildi. Shuningdek, kuzatish, suhbat, yozma ishlar tahlili va umumlashtirish metodlari qo'llanildi. Olingan ma'lumotlar asosida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining yozuv jarayoniga ta'siri tahlil qilinib, tegishli ilmiy xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yozuv kompetensiyasi shaxsning o'z fikrlarini yozma shaklda maqsadga muvofiq, izchil va tushunarli tarzda ifodalash qobiliyatini anglatadi. Mazkur kompetensiya faqatgina til qoidalarini bilish bilan chegaralanmaydi, balki fikrni shakllantirish, ma'lumotlarni tanlash, ularni tahlil qilish va mantiqiy asoslash jarayonlarini ham qamrab oladi. Ayniqsa, zamonaviy ta'lim jarayonida yozuv faoliyati o'quvchidan yoki talabadan mustaqil

fikrlashni, o'z pozitsiyasini himoya qila olishni hamda turli manbalar asosida xulosa chiqarishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, tanqidiy fikrlash yozuv kompetensiyasini rivojlantiruvchi asosiy intellektual vositalardan biri hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlash insonning ma'lumotlarga ongli va tahliliy munosabatda bo'lish qobiliyatidir. Ushbu jarayonda shaxs mavjud fikrlarni oddiy qabul qilmasdan, ularning mohiyatini anglaydi, dalillarini tekshiradi va turli qarashlarni solishtiradi. Yozuv jarayonida tanqidiy fikrlash muallifga mavzuni chuqur tushunish, asosiy g'oyani aniqlash va uni dalillar orqali yoritish imkonini beradi. Natijada yozilgan matn oddiy axborot beruvchi vosita emas, balki muayyan fikrni ifodalovchi, tahliliy va ilmiy asoslangan kommunikativ mahsulotga aylanadi.

Yozuv jarayonining dastlabki bosqichi bo'lgan rejalashtirishda tanqidiy fikrlash muhim ahamiyatga ega. Har qanday yozma ishni yaratishdan oldin muallif mavzuning mohiyatini anglab olishi, asosiy savollarni belgilashi va qanday fikrlarni ilgari surishini aniqlashi zarur. Tanqidiy fikrlashga ega bo'lgan shaxs mavzuga turli nuqtayi nazardan yondashadi, muammoning sabablarini o'rganadi va o'z yozuvi uchun aniq maqsad belgilaydi. Bu esa matnning mazmunan boy va mantiqan izchil bo'lishini ta'minlaydi.

Yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda ma'lumotlarni tahlil qilish va baholash jarayoni ham alohida o'rin tutadi. Bugungi axborot makonida turli manbalardan kelayotgan ma'lumotlarning barchasi ham ishonchli yoki ilmiy asoslangan bo'lavermaydi. Shu sababli yozuvchi manbalarni tanlash, ularning ishonchliligini aniqlash va kerakli ma'lumotlarni ajratib olish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Tanqidiy fikrlash aynan mana shu jarayonda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Talaba turli manbalarni solishtirish orqali o'z fikrini mustahkamlaydi va yozma ishining ilmiy qiymatini oshiradi.

Tanqidiy fikrlash yozuvning mazmuniy va strukturaviy jihatdan mukammallashishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Mantiqiy fikrlash qobiliyati rivojlangan shaxs matn qismlarini to'g'ri tashkil eta oladi, fikrlar o'rtasidagi bog'lanishni saqlaydi va asosiy g'oyani aniq ifodalaydi. Ayniqsa, akademik yozuvda kirish, asosiy qism va xulosa o'rtasidagi uyg'unlik muhim hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash orqali yozuvchi har bir fikrning matndagi o'rnini belgilaydi va ortiqcha yoki mavzuga aloqasiz ma'lumotlardan foydalanishning oldini oladi.

Bundan tashqari, tanqidiy fikrlash yozuvchining argument yaratish qobiliyatini rivojlantiradi. Ilmiy va akademik yozuvlarda muallif nafaqat o'z fikrini bildirishi, balki uni dalillar yordamida asoslay olishi kerak. Argumentativ yozuv jarayonida muallif qarama-qarshi fikrlarni ko'rib chiqadi, ularning kuchli va zaif tomonlarini tahlil qiladi hamda o'z pozitsiyasini aniq shakllantiradi. Bunday yondashuv yozuv kompetensiyasining yuqori darajada shakllanganligini ko'rsatadi.

Tanqidiy fikrlashning yana bir muhim jihati yozilgan matnни tahrirlash jarayonida namoyon bo'ladi. Ko'pincha yozuvchilar dastlabki variantdagi xatolarni o'z vaqtida aniqlay olmaydilar. Tanqidiy yondashuv esa shaxsga o'z ishini qayta ko'rib chiqish, fikrlarning mantiqiylikini tekshirish, uslubiy va mazmuniy kamchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi. O'z yozuvini baholay olish ko'nikmasi mukammal matn yaratishning muhim shartlaridan biridir.

Ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni shakllantirishga yo'naltirilgan metodlardan foydalanish yozuv kompetensiyasining samarali rivojlanishiga yordam beradi. Jumladan, muammoli vaziyatlar asosida yozish, munozaralar tashkil etish, tahliliy savollar berish, fikrlarni taqqoslash va reflektiv yozuv topshiriqlari talabalarning faol fikrlashiga imkon yaratadi. Bunday metodlar orqali o'quvchilar tayyor ma'lumotlarni yodlashdan ko'ra, ularni mustaqil tahlil qilishga va o'z fikrlarini yozma ravishda ifodalashga o'rganadilar.

Shuningdek, tanqidiy fikrlash ijodiy yozuv kompetensiyasining rivojlanishida ham muhim omil hisoblanadi. Ijodiy yozuv yangi g'oyalarni ilgari surishni, noodatiy fikrlashni va mavjud bilimlardan yangicha foydalanishni talab qiladi. Tanqidiy fikrlash esa bu jarayonni tartibga solib, yangi g'oyalarning mantiqiy va mazmunli shakllanishiga yordam beradi. Natijada shaxsning yozma nutqi nafaqat aniq va asoslangan, balki ijodiy va ta'sirchan bo'ladi.

Umuman olganda, tanqidiy fikrlash va yozuv kompetensiyasi o'zaro chambarchas bog'liq jarayonlardir. Yozuv orqali fikr namoyon bo'lsa, tanqidiy fikrlash ushbu fikrning mazmuni, aniqligi va asoslanganligini ta'minlaydi. Shu sababli ta'lim jarayonida yozuvni rivojlantirish tanqidiy fikrlashni shakllantirish bilan birgalikda olib borilishi zarur. Bu esa zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan, mustaqil va tahliliy fikrlaydigan shaxslarni tayyorlash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari yozuv kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Yozuv jarayoni faqatgina fikrlarni yozma shaklda ifodalash emas, balki ma'lumotlarni izlash, saralash, tahlil qilish, baholash va asoslangan xulosalar chiqarishni talab qiladigan murakkab intellektual faoliyatdir. Shu sababli tanqidiy fikrlash rivojlangan shaxsning yozma nutqi mazmunan boy, mantiqan izchil va ilmiy jihatdan asoslangan bo'ladi.

Tanqidiy fikrlash yozuv kompetensiyasining barcha bosqichlarida muhim rol o'ynaydi. U mavzuni tushunish va rejalashtirish jarayonida asosiy g'oyani shakllantirishga, yozish jarayonida fikrlarni tizimli bayon etishga,



tahrirlash bosqichida esa matnning kamchiliklarini aniqlash va takomillashtirishga yordam beradi. Ayniqsa, akademik yozuv jarayonida tanqidiy fikrlash talabalarga turli manbalarni tahlil qilish, dalillarni baholash va o'z fikrlarini ilmiy asoslash imkonini beradi.

Shuningdek, tanqidiy fikrlash asosida tashkil etilgan yozuv mashg'ulotlari o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini, ijodiy yondashuvini va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bunday yondashuv orqali talabalar tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki o'z fikrini shakllantira oladigan, muammolarni tahlil qiladigan va o'z qarashlarini asoslay oladigan faol shaxs sifatida rivojlanadi.

Zamonaviy ta'lim sharoitida yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda tanqidiy fikrlashni shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Chunki bugungi kunda shaxsdan nafaqat savodli yozish, balki axborotni anglash, unga tanqidiy munosabat bildirish va o'z fikrlarini samarali yetkazish qobiliyati ham talab qilinmoqda. Shu bois ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlash va yozuv ko'nikmalarini uyg'un holda rivojlantirish kelajak mutaxassislarining kasbiy va akademik muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduqodirov, A. A., & Pardaev, A. X. (2020). Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlari. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti.
2. Azizxo'jayeva, N. N. (2020). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. G'ulomov, A. (2023). Ona tili ta'limida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi. Toshkent: Akadernashr.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.